

**YURIDIK AMALIYOTDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASHDA
YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI**

Alimov Muhammadyusuf

*Toshkent Davlat Yuridik Universtiteti Davlat boshqaruv huquqi yo'nalishi
magistri*

Annotatsiya. Maqolada yuridik faoliyatda sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanish muhokama qilinadi. Sun'iy intellektni yuridik amaliyotga joriy etish uchun huquqshunoslarning axloqiy qadriyatlar tizimini yaratish masalalariga jiddiy e'tibor qaratish zarurligi tahlil etiladi. Maqolada yuridik amaliyotda foydalanish uchun mo'ljallangan neyron tarmoqlarni o'qitish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar to'plamini yaratish muammolari, milliy va xorijiy yuridik amaliyotda sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish namunalari tahlil qilinadi. Sun'iy intellektdan foydalanishni yuridik texnologiyaning alohida turi sifatida ko'rib chiqish imkoniyati asoslanadi. Yuridik amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan sun'iy intellekt tizimlariga asoslangan ko'plab loyihalar amalda qo'llanilishiga qaramasdan, huquqshunos kadrlar hamda sun'iy intellektning o'zaro uyg'unligini ta'minlash eng maqbul yechim ekanligi ta'kidlanadi.

***Kalit so'zlar:** yuridik amaliyot, sun'iy intellekt, ma'lumotlar bazasi, yuridik amaliyotda sun'iy intellektdan foydalanish, yuridik texnologiyalar.*

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlar sun'iy intellektdan foydalangan holda yuridik amaliyotni optimallashtirish, shaxslar uchun yuridik yordam olish tizimini takomillashtirish, yuridik xizmatni eng so'nggi axborot texnologiyalari asosida rivojlantirish choralari ko'rishmoqda. Mamlakatimizda ham yuridik amaliyotda sun'iy intellektni qo'llash ahamiyatli, qiziqarli mavzu darajasiga ko'tarilmoqda.

Fikrimizcha, sun'iy intellekt o'zining jozibadarligi bilan bir qatorda, yuridik

amaliyotda qo'llash bo'yicha ayrim nazariy-huquqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday skeptik qarashimiz, o'z navbatida, ayrim olimlar hamda sun'iy intellekt islohmandlarida taajublanishni keltirib chiqarishi mumkin. Lekin sun'iy intellekt muammolari o'tgan asrda N.Viner¹, R.Bellman², A.Tyuring³ kabi mashhur tadqiqotchilar tomonidan ham tadqiq etilganligi, mazkur masala doimiy tusga ega bo'lgan "bahsli uchburchakka" qiyoslanishi mumkin.

Bunday holatni oldini olish maqsadida, yuqorida ta'kidlangan nazariy-huquqiy muammolarni quyidagicha ifoda etishimiz mumkin:

Birinchi, yuridik kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish muammolari: sun'iy intellektni yuridik amaliyotga keng joriy etish, birinchi navbatda, yuridik kadrlarning "shok terapiyasiga" olib kelishi mumkin. Zero, o'z kasbining ustalari bilan bir qatorda, endigina yuridik sohaga kirib kelayotgan yosh kadrlarni raqabotbardoshligini ta'minlash, ularning sun'iy intellekt bilan "qurollanishlarini" hamda yuridik bilim va malakalarini sun'iy intellekt texnologiyalari "moslashtirish" dastlabki holatlarda ko'plab resurslar (byudjet mablag'lari, intitutsional tuzilishlar, bo'sh ish o'rinlari, malaka talablarini qayta ko'rib chiqish) va boshqa shu kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, huquqshunos mutaxassislar o'zlarining sohaga oid huquqiy bilimlarini rivojlantirish, ma'lumotlarning maxfiylikni ta'minlash va sun'iy intellekt texnologiyalarini "qo'llash chegaralari" etikasiga oid yangi bilim va ko'nikmalarni talab etadi.

Ikkinchi, yuridik amaliyotdagi maxfiylik qoidalarining "zaiflashishi": Sun'iy intellekt yordamida yuridik yordam yoki yuridik xizmatni olib borishda maxfiylikning ta'minlash, ma'lumotlarni himoyalash, foydalanuvchilar bilan kelishuvlarni rivojlantirish, davlat organlarining xizmat davomida foydalanish yoki maxfiy hujjatlarining "sizdirilishi" xavfi, davlat organlarining kiber himoyalanganlik darajasiga jiddiy talab va ehtiyojni tug'dirishiga olib keladi. Shuningdek, foydalanuvchilar, yuridik amaliyot xodimlari tomonidan shaxsiy

¹ Wiener N. Cybernetics: Or Control and Communication in the Animal and the Machine. 2nd revised ed. Paris : Hermann & Cie, Camb. Mass. (MIT Press), 1961.

² Bellman R. An Introduction to Artificial Intelligence: Can Computer Think? San Francisco : Boyd and Fraster Publishing Company, 1978.

³ Turing A. Computing machinery and intelligence // Mind. 1950. № 59. P. 433-460.

daxlsizlik hamda kiber xavfsizlik ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlarni keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, sun'iy intellektdan foydalanishda xulq-atvor hamda etika oid muammolar: Sun'iy intellektning o'zgaruvchilik va rivojlanayotgan xususiyatlari xulq-atvor muammo va talablarni ishlab chiqishga olib kelmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishda yuridik amaliyotdagi xulq-atvor standartlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

To'rtinchidan, yuridik amaliyotda sun'iy intellektdan foydalnaishni tartibga soluvchi kompleks normativ-huquqiy hujjat va boshqa me'yoriy hujjatlarning to'laqonli ishlab chiqilmaganligi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4996-son qarori bu boradagi asosiy normativ-huquqiy hujjat bo'lib, sun'iy intellektni yuridik amaliyotda qo'llash uchun yetarli darajadagi komplekslik xususiyatlariga ega, deb bo'lmaydi.

Beshinchidan, yuridik amaliyot va sun'iy intellekt mutaxassislari o'rtasidagi "ko'priknig" to'laqonli emasligi: O'zbekiston hukumatining sun'iy intellekt sohasidagi rivojlanish hamda boshqarish uchun axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt sohasidagi mutaxassislar bilan yuridik kadrlar o'rtasidagi barqaror maslahatlashuv, institutsional-tuzulmaviy idoralarning mavjud emasligi ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt sohasidagi bunday o'zaro hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari aniq ishlab chiqilmaganligini kuzatish mushkul emas.

Yuqoridagi nazariy-huquqiy muammolarga qaramasdan bugungi kunda ko'plab rivojlangan mamlakatlarda sun'iy intellekt yuridik amaliyotda qo'llanilib kelinmoqda.

2021-yilning sentabr oyida Xalqaro advokatlar assotsiatsiyasi (International Bar Association) hisobotini e'lon qildi. Unda turli mamlakatlardagi yuridik tashkilotlar o'z yurisdiksiyalarida sun'iy intellekt tizimlaridan amaliy foydalanishga oid savollarga javob berdilar⁴. Mazkur manbalarga asoslangan holda,

⁴ Guidelines and Regulations to Provide Insights on Public Policies to Ensure AI's Beneficial Use as a Professional Tool // International Bar Association: the global www.pedagoglar.org

Oakalls Consultancy kompaniyasi prezidenti, huquqshunosi Treysi Kalvert intellektual tizimlar ishtirok etadigan oltita sohani aniqladi:

1. yuridik amaliyotni avtomatlashtirish;
2. huquqiy prognozlash;
3. normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash;
4. huquqiy tadqiqotlar va tahlillar;
5. yuridik maslahatlashuv texnologiyalari;
6. aloqa uchun robot tizimlari (chat botlari).

Ingliz huquqshunosi nuqtai nazaridan sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligining asosiy argumenti, birinchi navbatda, yuridik hujjatlarni qayta ishlash xarajatlarini kamaytirish va advokatlar va mijozlarning vaqtini tejash hisoblanadi. Advokatlik firmalari mahsuldorlik va samaradorlik nuqtayi nazaridan yuqoriroq darajada faoliyat yuritishi mumkin.

Lekin, shu o'rinda, savol tug'iladi: "vaqt va moliyaviy resuslarni tejash niyati orqali yuridik amaliyot sun'iy intellekt tufayli xavf ostida qolmaydimi?"

Sun'iy intellektdan foydalangan holda semantik tahlil dasturlari tobora keng tarqalmoqda. Masalan, Leverton dasturiy platformasi shartnomalar matnlarini tahlil qilish va ularni keyingi tuzilmalash maqsadida ulardan asosiy ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Bunday holda, dastlabki ma'lumotlar turli shakllarda taqdim etilishi mumkin: yozma, grafik va boshqalar. Leverton platformasining sun'iy intellekt texnologiyalari ko'chmas mulkni ijaraga berish bo'yicha operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlashni avtomatlashtirish, hisob-kitoblarni solishtirish, shartnomalar tuzish bo'yicha muzokaralarga tayyorgarlik ko'rishda shartnoma matnlarini tahlil qilish, yuridik shaxslarni qayta tashkil etish bilan bog'liq kompleks auditlarni o'tkazish, tekshirishda qo'llaniladi⁵.

Huquqni raqamlashtirish sohasida davlatlar orasida yetakchilardan biri Xitoy hisoblanadi. 2013-yildan boshlab Xitoyda sud jarayoniga internet-texnologiyalarning integratsiyalashuvi, sud jarayonlarini onlayn rejimda o'tkazish,

voice of the legal profession. 2022. 17 June. URL: https://www.ibanet.org/PPID/Constituent/Multi-disply_Pract/anlbs-ai-report (дата обращения: 04.07.2022).

⁵ Leverton. An MRI software company // URL: <https://leverton.ai/product/#technology> (дата обращения: 04.07.2022).

jarayon ishtirokchilarini sun'iy intellektdan foydalangan holda dasturiy ta'minot bilan qo'llab-quvvatlash faol rivojlana boshladi⁶. FaXiaotao kompyuter dasturi berilgan faktlar asosida shunga o'xshash sud ishlarini tahlil qiladi, qabul qilingan qarorlarni tizimlashtiradi va muayyan ish bo'yicha g'alaba qozonish ehtimolini hisoblaydi. Bundan tashqari, ushbu dasturning funkcionalligi sud jarayonining dastlabki bosqichida mijoz uchun ma'lum bir sohada ixtisoslashgan advokatlarni topish va yuridik maslahat berish imkonini beradi⁷.

Sun'iy intellekt sohasidagi texnologik taraqqiyot butun dunyo bo'ylab dolzarb mavzuga aylanar ekan, odamlar sun'iy intellektning rivojlanishi huquq tizimiga ta'sir qiladimi, degan savol tug'iladi?⁸

Ko'pgina mamlakatlarda politsiya faoliyatida sun'iy intellekt dasturlari qo'llaniladi. Masalan, yuzni tanish texnologiyasi jamoat joylarida, aeroportlar, vokzallar va metro stansiyalari kabi transport markazlarida keng qo'llaniladi. Ular avtomatik ravishda yuzlarning dinamik tasvirlarini olishlari va ularni huquqni muhofaza qilish organlari ma'lumotlar bazalaridagi tasvirlar bilan solishtirishlari mumkin. Bunday kompyuter dasturlari tergov organlari, prokuratura, militsiya, xavfsizlik xizmati, jazoni ijro etish xizmatlari faoliyatida muhim o'rin tutadi. Mashinani o'rganishga asoslangan kompyuter dasturiga PredPol tizimi misol bo'la oladi⁹.

Tadqiqotda o'rganishimizcha, Buyuk Britaniya, Kanada va AQShda bular "Premonition", "Case Crunch" va "Court Quant" startaplari bo'lib, ulardan natija bo'lmagan tahlillar "Ravel" tomonidan taqdim etiladi va bu sudyalarning qarorlari hamda AQSh yuridik firmalarining faoliyatini tekshirish uchun ishlatilishi mumkin. Bu o'z navbatida, holatlarga qisman huquqiy baho berishga va bu bo'yicha hulosa ishlab chiqishga imkon beradi. Ammo ushbu ishlab chiqilgan huquqiy texnologiyalar ham ko'plab noto'g'ri qarorlar qabul qilishi mumkin. Shu boisdan, bunday dasturlar natijalari ustidan advokatning huquqiy tahlili juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday amaliyot

⁶ Heneйвoдa H. Правoсудие на кончикax пaльцeв: oпыT КНП // Закон.ру. Первая социальная сеть для юристов. 2020. 2 мая. URL: https://zakon.ru/blog/2020/5/2/pravosudie_na_konchikah_palcev_opyt_knr_83633 (дата обращения: 04.07.2022).

⁷ Lu Xinshe. The legal robot is here! «Fa Xiaotao» on-site Miaoshou lawyer shocked the audience // URL: <https://www.programmersought.com/article/60525400581/> (дата обращения: 04.07.2022).

⁸ Li J., Liu U., Yue L., Jin F., Xu Q., Xu C. Artificial Intelligence Governed by Laws and regulations // *Reconstructing Our Orders: Artificial Intelligence and Human Society* / ed. D. Jin. Shanghai: Shanghai University Press, Springer, 2019. 7 May. P. 64.

⁹ PredPol. The Predictive Policing Company // URL: www.predpol.com (дата обращения: 04.07.2022).

O'zbekistonda mavjud emas va ushbu yo'nalishda to'lig'i bilan advokatlik xizmatiga tayaniladi. Ushbu yo'nalishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'lmasa, mamlakatimizdagi advokatlar bunday xizmatdan manfaatdor emas.

Yuqori darajadagi global loyihalarni eslab, shuni aytish kerakki, 2016-yilda Amerikaning "Baker & Hostetler" yuridik firmasi sun'iy intellekt asosida ishlaydigan robot huquqshunosni yollagan. "Watson" kompyuteri asosida "IBM" tomonidan ishlab chiqilgan "ROSS" loyihasi o'sha kompaniyaning bankrotlik bo'limiga rahbarlik qildi. Bularning barchasi shunchaki misollar bo'lib, ularning barchasi o'z yaratuvchilariga va jamiyatga qanchalik foyda keltirganligini tasavvur qilib bo'lmaydi¹⁰. Bunday dasturlar zararli tomoni shundaki, ular jamiyatni mustaqillikdan qaramlilikka qaratib olib boradi va ularni ko'proq dangasa va axmoqqa aylantirib qo'yishi mumkin.

Bu boradagi muammolarni yechishda, sun'iy intellektni yuridik amaliyotga joriy etish masalasi ilmiy tadqiqotlarda, doktorinal kuzatishlar, huquqiy-nazariy yondashuvlarni takomillashtirishni, normativ-huquqiy bazani yaratish va takomillashtirish, sun'iy intellektdan foydalanish standart va etikasini ishlab chiqish, yuridik kadrlar hamda axborot texnologiyalari mutaxassislari bilan baraqaror institutsional tuzulmalarni shakllantirish, ma'lumotlarning maxfiylikka darajalarini yangi bosqichga olib chiqish, bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish talab etiladi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etishda quyidagi ehtimoliy taklif va tavsiyalarga e'tibor qaratish muhim, deb hisoblaymiz:

Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini isloh etish: Sun'iy intellekt sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun yuridik ta'limning sun'iy intellekt va texnologiyalar bilan integratsiyasini o'rta maxsus hamda oliy ta'lim muassasalariga joriy etish, bu boradagi maxsus modul fanlarni o'quv rejalariga kiritish, huquqiy ma'lumotlar hamda sun'iy intellekt tahlilini amalga oshirish qobiliyatini shakllantirishga ko'maklashuvchi qo'shimcha mustaqil ta'lim vositalarini joriy etish

¹⁰ Пивоваров В. Как LegalTech делает право доступным в мире, 2020. <https://platforma-online.ru/media/detail/kak-legaltech-delaet-pravo-dostupnym-v-mire/>.
www.pedagoglar.org

talab etiladi.

Yuridik amaliyotga sun'iy Intellektni joriy etishda tadbirkorlik subyektlari va ichki investitsiya resurslaridan foydalanish "maydonchalarini" yaratish, sun'iy intellekt dasturlari bo'yicha milliy "startup" loyihalarini rivojlantirish, kiber xavfsizlik, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash ishlari bo'yicha tanlov va xususiy sektor uchun qiziqish uyg'otadigan grantlarni e'lon qilish katta natijalarni olib kelishiga umid qilish mumkin.

Sun'iy intellekt hozirgi kunda O'zbekistonga kirib kelishini jadal sur'atlarda oshirishni talab etishi va bunga O'zbekiston huquqiy va moddiy bazasining tayyorligining ahamiyatida ko'rinadi.

Muammoli vaziyat esa ushbu muammoning qanday yechilishini o'rganishda ko'rinishi zarur va O'zbekiston hozirgi kunda raqamli texnologiyalar orqali zamonaviy yuridik amaliyotni tez rivojlantirishi va shu orqali shaxslarga ko'rsatiladigan yuridik xizmatlarning tezroq tadbiiq etilishi masalasini ko'tarib chiqqanda yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *Wiener N.* Cybernetics: Or Control and Communication in the Animal and the Machine. 2nd revised ed. Paris : Hermann & Cie, Camb. Mass. (MIT Press), 1961.
2. *Bellman R.* An Introduction to Artificial Intelligence: Can Computer Think? San Francisco : Boyd and Fraster Publishing Company, 1978.
3. *Turing A.* Computing machinery and intelligence // Mind. 1950. № 59. P. 433-460.
4. Guidelines and Regulations to Provide Insights on Public Policies to Ensure AI's Beneficial Use as a Professional Tool // International Bar Association: the global voice of the legal profession. 2022. 17 June. URL: [https://www. ibanet.org/PPID/Constituent/Multi-displry_Pract/anlbs-ai-report](https://www.ibanet.org/PPID/Constituent/Multi-displry_Pract/anlbs-ai-report) (дата обращения: 04.07.2022).

5. Leverton. An MRI software company // URL: <https://leverton.ai/product/#technology> (дата обращения: 04.07.2022).
6. *Ненейвода Н.* Правосудие на кончиках пальцев: опыт КНР // Закон.ру. Первая социальная сеть для юристов. 2020. 2 мая. URL: https://zakon.ru/blog/2020/5/2/pravosudie_na_konchikah_palcev_opyt_knr_83633 (дата обращения: 04.07.2022).
7. *Lu Xinshe.* The legal robot is here! «Fa Xiaotao» on-site Miaoshou lawyer shocked the audience // URL: <https://www.programmersought.com/article/60525400581/> (дата обращения: 04.07.2022).
8. *Li J., Liu U., Yue L., Jin F., Xu Q., Xu C.* Artificial Intelligence Governed by Laws and regulations // *Reconstructing Our Orders: Artificial Intelligence and Human Society* / ed. D. Jin. Shanghai : Shanghai University Press, Springer, 2019. 7 May. P. 64.
9. PredPol. The Predictive Policing Company // URL: www.predpol.com (дата обращения: 04.07.2022).
10. Пивоваров В. Как LegalTech делает право доступным в мире, 2020. <https://platforma-online.ru/media/detail/kak-legaltech-delaet-pravo-dostupnym-v-mire/>.